



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

2/2018

УДК 72.03. (575.146)

QADIMIY VA NAVQIRON BUXORO ME'MORCHILIGI

АРХИТЕКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДРЕВНЕЙ И СОВРЕМЕННОЙ БУХАРЫ

SPECIFIC FEATURES OF THE ARCHITECTURE OF ANCIENT BUKHARA

Abdullayev Yo'ldir Ziyayevich

BuxDU Harbiy fakultetining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini, mayor

Tayanch so'zlar: jadal, ipak, unikal, zikr, chomaha, iatilo, Somoniy, Shayboniy, madrasa, dizayn, peshtoq.

Ключевые слова: быстрый, шёлк, уникальный, упоминание, перекресток, похоронение, Самани, Шейбани, медреса, дизайн, портал.

Key words: rapid, silk, unique, dhikr, crossing, invasion, Samani, Sheybanl, medrese, design, portal.

Mazkur maqola qadimiy va navqiron shahar Buxoroning uzoq tarixga borib taqalishi va undagi me'morchilik jihatlari o'rganishga qaratilgan.

Данная статья направлена на изучение исторических истоков и архитектурных особенностей древней и современной Бухары.

The article deals with the history of ancient Bukhara and the aspects of its architecture.

Kirish. 2017-yil 19-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2980-sonli qaror qabul qilindi.

Buxoro – Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri. Buyuk ipak yo'lidagi eng yirik va mashhur markazlardan hisoblanadi. Shahar minglab yillar bilan o'chanadigan o'zining boy va unikal barcha e'lon tarixi, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy-diniy qadriyatlarining rivojiga qo'shgan hisssasi bilan butun jahonga dong'i ketgan. Mazkur maqolada tarixiy voqeliklarni bir maqola doirasida o'rganishga harakat qilindi.

1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Buxoro – jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri: 1997-yilda shahar o'zining 2500 yillik yubileyini nishonladi. Buxoro nomi dastlab IX asrda tarixchi Narshaxiy tomonidan zikr etilgan. Bungacha shaharning boshqa bir necha nomlari bo'lgan.

Ko'plab tarixchilar, tilshunoslarning fikriga ko'ra Buxoro so'zi sanakritcha "vixara" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qal'a" degan ma'noni bildiradi. Arxeologik qazishmalar natijasiga asosan olimlar ushbu shahar eramizgacha bo'lgan davrda hududning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan degan xulosaga keldilar. Buxoro Xitoydan Rimgacha olib boruvchi Buyuk ipak yo'lining eng muhim chorahalaridan birida joylashgan.

VIII asrda bu yerda arab istilosi natijasida Islom dini joriy etilgan. Asta-sekin Buxoro eng muhim diniy markazga aylangan va tobora ko'proq "Buxoro Sharif" deb atalgan.

Rivojlanish davrida shahar bir necha bor (foralar, arablar, mo'gullar tomonidan) vayron qilingan va tiklangan. Buxoroning o'ziga xos iqtisodiy va madaniy rivojlanishi Somoniylar va Shayboniylar boshqargan davrlarga to'g'ri keladi.

Hozirgi Buxoro (qariyb 300 ming aholi) O'zbekistonning boshqa shaharlari singari eski va yangi shaharga bo'lingan. Lekin, bizning shahrimiz shak-shubhasiz ustunlikka ega: agar boshqa joylarda eski shahar qismida faqat tarixiy yodgorliklar bo'lib, hech bir aholi yashamagani uchun ochiq osmon ostidagi muzey sifatida qabul qilinsa, Buxoroda odamlar ilgarigidek yashamoqdalar. Bu har bir kishiga shaharning boy tarixini tasavvur qilish imkonini beradi.

Shaharning yangi qismida ma'muriy binolar, maktablar, universitet, institutlar va sanoat korxonalari joylashgan. Siz 2500-yillik Buxoroning tor ko'chalarida kechishingiz va ko'k gumbazli hashamatli binolar hamda kichik loysuvoq uylardan zavq olishingiz mumkin.

X asrda qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasi Buxorodagi eng qadimiy va chiroyli yodgorliklardan biridir. U hozirgi paytda ham xuddi 1000 yil ilgarigidek chiroyli ko'rinishga ega. Somoniylar asir fors bo'lgan birinchi tojik hukmdorlaridir (eramizning 875-999-yillari). Ular

poytaxt Buxoro bo'lgan buyuk davlatni berpo etishgan. O'sha davr qurilish, san'at turan, matematika, geometriya, fizika singari aniq fanlarning yuksak darajada rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi Buxoro shahri hududida aniq hisob-kitoblarga asosan qurilgan dastlabki bino edi. Bulun ilm ahli bu hisob-kitoblar qanchalik o'ta mantiqiy va shu bilan birga chiroyli chiqqaniga hali ham ajablanadi. Tikka, ko'ndalang, to'g'ri burchak ostida tarigan pishiq g'ishtlar quyoshning turli darajadagi nurlari bilan yoritilgan. Maqbara devorlari naqshinkor quti yoki ba'zan majnuntol xivichlaridan to'qilgan savatga o'xshab ketadi.

Buxoro shahrida joylashgan Ulug'bek madrasasi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan. U Amir Temurning kenja o'g'li Shohruxning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniya shahrida tug'ilgan. 1409-yil otasi Shohruxning yordamida Movarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil, 1449-yilgacha hukmronlik qilgan. U buyuk olim bo'lib, astronomiyaga oid "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini, tarixga oid "To'rt ulus tarixi" asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan.

Madrasa qurilishi o'rta asrlarning so'ngigiga to'g'ri keladi. U XV asrning birinchi choragida, ya'ni 1417-yilda qurib bitkazilgan.

Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida bunyod etilgan bu obida Buxoro shahrining eski shahar qismida, Abdulazizxon madrasasi ro'parasida bunyod etilgan. XV asrning birinchi choragida Movarounnahrda Temuriylar o'rtasida taxt uchun kurash kuchayib ketdi. Movarounnahr va Xurosondan tashqari barcha hududlar Temuriylar qo'lidan chiqib ketdi.

Me'moriy obidaning qurilishida guvala va paxsadan tashqari xom va pishiq g'isht, yog'och (tut va yong'oq daraxti) lardan keng foydalanilgan.

Me'moriy inshootdagi (dizayn) ustunlar, derazalar, devorlar ganch o'ymakorligi asosida ishlangan. Shiftlar g'isht o'ymakorligi asosida naqshlangan. Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qavatida 2 qavatli hujralar va burchaklarida guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubba qilib ishlangan. Madrasaning asosiy bezagi peshtoqida bo'lib, unda sirkor g'ishtchalardan tashqari, rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan. Hovlining shimoliy va janubiy tomonlari qisqaroq ko'rinishga ega bo'lib, devorlari, ravoq va peshtoqlari oq, feruza va binafsha rang va sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Hujralar ichi ganch suvoqli. Madrasa 53 metrga 41,6 metrga tashkil etadi. Masjid 15,5 metrga 5,5 metrga tashkil etadi. Darsxona esa 5,5 ga 5,5 metrga tashkil etadi. Madrasa eshigining tabaqalariga arab yozuvida "ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir" deb yozib qo'yilgan. Bundan tashqari peshtoqda Amir Temur davrida Erondan keltirilgan ustaning avlodi Ismoil ibn Tohimning nomi ganchkor va turli bezaklar asosida yozilgan nasta'liq xatida saqlanib qolgan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko'p va ayvon ustunlari zarhlangan.

Me'moriy inshoot Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan gumbazsimon, arki, to'rtburchak va "Chor" uslubida qurilgan.

Madrasaning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, u balandligi jihatidan Buxorodagi boshqa madrasalarga qaraganda pastroq va hujralarining ko'pligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu Ulug'bek tomonidan qurdirilgan dastlabki madrasadir. Madrasaning boshqa madrasalardan farqi shundan iboratki, uning ikki chetida minoralar mavjud emas. Xonaqoh pesh ayvonlari esa 8 tani tashkil qiladi.

Bugungi kungacha me'moriy obida atroflarida bog'lar tashkil qilingan. Bizgacha Ulug'bek madrasasi ancha o'zgargan holda yetib kelgan. 1950-1970 va 1990-1996-yillarda ta'mirlangan. Madrasaning ta'mirlalab yerlari qayta rekonstruksiya dan chiqarilgan. Madrasa ko'chasiga esa o'rta asr uslubida toshlar yotqizilib, yo'llar hosil qilingan. Hozirgi kunda madrasa ochiq osmon ostidagi muzey sifatida chel el sayyohlari hamda o'zbekistonlik milliy, madaniy merosga qiziquvchilarning ziyoratgohiga aylangan.

Ark qal'asi yuz yillar davomida Buxoro hukmdorlarining rasmiy yashash joyi bo'lgan. U balandligi 16-20 metr bo'lgan sun'iy tepalikda qurilgan. Qal'a maydoni qariyb 4 gektar. Odamlar ko'pincha uni "shahar ichida shahar" deb atashgan, chunki unda odatdagi shaharning hamma narsalari: ko'chalar, tor ko'chalar, saroy, masjidlar, ustaxonalar bor bo'lgan.

Qal'a bir necha bor vayron qilingan, ta'mirlangan va tiklangan. Afsuski, hozirgi paytga kelib, o'tmishdagi hashamatli Arkdan ozginasi qolgan. Ko'plab binolar 1920 yilgi istibdod voqealari davrida buzilib ketgan. Lekin, shunga qaramasdan Ark borib ko'rishga arziydi. Arkda

joylashgan o'lkashunoslik muzeyida siz shahar tarixi, milliy urf-odatlar va an'analar to'g'risida ko'p qiziqarli narsalarni eshitasiz. Bundan tashqari qal'aning baland devonlari ustidan turib siz Buxoroning chiroyli qiyofasini tomosha qilishingiz mumkin.

Masjidi Kalon – Samarqand shahridagi Bibixonim masjididan keyin O'rta Osiyodagi ikkinchi eng katta masjid. Musulmon bayramida masjidga 10 ming kishi sig'ishi mumkinligi o'z isbotini topgan. Masjidning usti ochiq yirik hovlisi, uning ajayib peshtoqlar, va usti yopiq ayvonlari unutilmas taassurot qoldiradi.

Masjidi Kalon ro'parasida joylashgan Miri Arab madrasasi proporsiyasi va simmetriyasi tufayli o'zidan keyin qurilgan masjidlar uchun namisha namuna vazifasini o'tagan. Bo'lg'usi imomlar ta'lim olgan Miri Arab madrasasi ko'p yillar davomida sobiq sho'rolar ittifoqi davrida amal qilgan yagona madrasa bo'lgan.

Buxoroning markazi (16-17 asrlar). Labi Xovuz – Buxoro ahli va mehmonlarining sevimli joyi. Siz bu joyda eski qadrdonlarni uchratishingiz va yangi do'stlar orttirishingiz, o'tmishni esga olishingiz va kelajak haqida fikr yuritishingiz mumkin. Maydon o'rtasida katta hovuz bo'lib, uning atrofida turli binolar barpo etilgan: Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqosi.

Bu yerda eng eski bino – Ko'kaldosh madrasasi. XVI asrda Ko'kaldosh ismli vazir Buxoroda O'rta Osiyodagi eng katta madrasani qurish haqida buyruq bergan.

Nodir Devonbegi madrasasi joylashgan hududda karvonsaroy qurish ishlari boshlangan. Keyinchalik Nodir Devonbegining rejalari o'zgargan va karvonsaroy madrasaga aylantirilgan. Bu salbiy oqibatlarga olib kelgan: bu yerda talabalar uchun masjid ham, ma'ruza zali ham bo'lmagan – ular ko'zda tutilmagan. Lekin, bu bino sirlangan sopol va chinni koshinlar bilan chiroyli bezatilgan. Buxoroda siz faqatgina shu madrasaning peshtoqida afsonaviy Semurg' qushi va inson yuzi aks etgan quyosh tasvirlarini ko'rishingiz mumkin. Yilning issiq faslida madrasa ichki hovlisida siz folklor tomoshasidan zavqlanishingiz mumkin. Tim qora tungi osmon, hazin va quvnoq maftunkor kuy... Siz "Ming bir kecha"ni boshqacha tasavvur eta olarmidingiz?

Hovuzning boshqa tomonida darvishlar uchun kichik mehmonxona - Nodir Devonbegi Xonaqosi joylashgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida Buxoro islom markazi bo'lgan. Bu yerga ko'plab ziyoratchilar kelishgan, ular tunda qoladigan qo'noqqa muhtoj bo'lganlar. Shu boisdan shaharda ko'plab kichik mehmonxonalar va karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Ehtimol, bu xonaqo dindorlar o'rtasida mashhur bo'lgan, chunki unda nafaqat uxlash uchun xonalar, balki namoz o'qish uchun katta masjid ham bo'lgan. Yuksak did bilan bezalgan eshik hovuz suvida aks etadi.

Labi hovuzga keling. Bu yerdagi choyxonada bir piyola ko'k choy iching, kur bo'yl shu joyda o'tirib, domino o'ynab, keksalar bilan suhbatlashing. Bu yerda siz shahar jamolini, uning aholisi mehmondo'stligini va milliy xarakteri xususiyatlarini boshqa joydagidan ko'ra ko'proq his qilasis.

Shahardan taxminan 4 km tashqarida Buxoro so'nggi amirlarining yozgi saroyi joylashgan. Saroy "Sitorai Moxi xosa" – Oy va yulduzlar o'rtasidagi joy deb, shoirona nomlangan. Saroyning me'moriy jihatdan tuzilishi faqat shu bois ham qiziqarlilik, u XIX asr oxiri va XX asr boshidagi boylarning didini namoyish qiladi. Binolarning asosiy qismi turlicha qarashlarning aralash uslubida qurilgan. Taxt o'rnatilgan xona istisno tariqasida milliy urf-odatlarga to'la mos ravishda bezatilgan. Undagi ajoyib nozik "ganch" o'ymakorligi sizning xotirangizda muhrlanib qoladi. Hozir bu yerda xalq amaliy san'ati muzeyi joylashgan bo'lib, unda siz ipak bilan tikilgan chiroyli so'zana, sopol buyumlar, ayollarning an'anaviy zargarlik taqinchoqlari, milliy kiyimlar va boshqalarni tomosha qilishingiz mumkin.

Buxoroda boshqa ko'plab yodgorliklar mavjud, ularni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi.

Buxoro viloyati Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan minglab alifmalarning vatani hisoblanadi. Birgina Buxoroning o'zida 7000 dan ortiq avliyolar yashab o'tgan. Islom ahli o'rtasida Buxoro viloyati hududida joylashgan olamga mashhur "Yetti pir"ning qadamjolarini ziyorat qilish muqaddas haj ziyoratiga tenglashtirilgan. Qadimiy Buyuk Ipak yo'li Buxoro viloyati orqali o'tgan va bu Sharif shahar ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va Islom dini madaniyatining yirik markazlaridan biri bo'lgan. Buxoro 2500 yildan ortiq boy tarixga ega.

Buxoro viloyati hududida juda ko'plab betakror qadimiy obidalar saqlanib qolgan bo'lib, mustaqillik yillarida ular obod va go'zal ziyoratgohlarga aylantirilgan. Ana shunday tarixiy obidalarning 2000 dan ortig'i YUNESKO tashkilotining muhofazasiga olingan. Viloyatning boy madaniy merosi ming yillar davomida butun dunyoni o'ziga rom etib kelgan. Viloyatda 20 dan ortiq sayyohlik kompaniyalari hamda 50 dan ortiq zamonaviy mehmonxonalar faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda ham Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasining ilm-fan, hunarmandchilik, ma'naviyat va sayyohlik markazlaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyati aholisining ilmiy salohiyati, ma'naviy yetukligi hamda mehnatsevarligiga ko'ra respublikada eng oldingi o'rinlarda turadi. Viloyat hududida tabiiy gaz, neft, grafit, betonit, marmar, granit, gips, oltingugurt, ohak va boshqa qurilish mollari uchun xom ashyoning boy konlari o'rganilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro shahridagi har bir tarixiy inshootining bir necha ming yillik tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Ko'hna va boqiy Buxoro me'morchiligini o'rganishda imkoniyatlar ko'lamidan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Турсунов И.О. Из истории городского ремесла северного Таджикистана. – Душанбе, 1974. – С. 139-140.
2. Кастелская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865—1917). – М., 1980. – С. 78-80.
3. Barakayev J., Haydarov Y. Buxoro tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – B. 89-90.
4. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – T., 1991. – B. 138-139.
5. Asqarov A. O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan 5-asrgacha). – T., 1994. – B. 117-118.
6. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat hazinaslari. – T., 1999. – B. 53-54.
7. Немцева Н.Б. Ханак Сайф ад-Дина бахарзи в Бухаре (к истории архитектурного комплекса). – Бухоро., 2003. – С. 83-84.
8. Муини Р. Архитектурные памятники Бухары. – Бухара, 2007. – С. 104-105.
9. <http://www.Ziyo.uz>

UDK 515

SIMMETRIYA TEKISLIGIGA EGA BO'LGAN IKKI SIRTNING KESISHISH CHIZIG'INI YASASHNING ANALITIK USULI

АНАЛИТИЧЕСКИЙ СПОСОБ ПОСТРОЕНИЯ ЛИНИИ ПЕРЕСЕЧЕНИЯ ДВУХ ПОВЕРХНОСТЕЙ ИМЕЮЩИХ ОБЩУЮ ПЛОСКОСТЬ СИММЕТРИИ

THE ANALYTICAL METHOD OF CREATING THE INTERSECTIONLINE OF TWO SURFACES WHICH HAVE A SYMMETRIC PLANE

Murodov Shihmilt Karimovich

TDFU Muhandislik grafikasi va uni o'qitish metodikasi kafedrasini profussori

Tashimov Nurjan Erpolatovich

TDFU Muhandislik grafikasi va uni o'qitish metodikasi kafedrasini dotsenti

Mamurova Dilfuza Islomovna

BuxDU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasini o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: silindr, shar, analitik, kesishuv chizig'i, tenglama, simmetriya tekisligi, frontal proyeksiya, profil proyeksiya.

Ключевые слова: цилиндр, шар, аналитик, линии пересечения, уравнения, плоскость симметрии, фронтальная проекция, профильная проекция.

Key words: cylinder, sphere, analytical, lines of the Intersection, equation, plane symmetry, frontal projection, profile projection.

Umumiy simmetriya tekisligiga ega bo'lgan ikkinchi tartibli sirlarning o'zaro kesishish chizig'ini yasashda analitik usuldan foydalanish haqida so'z boradi.

В данной статье рассматривается графоаналитический метод построения линии пересечения поверхностей второго порядка, имеющих общую плоскость симметрии.